



TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

ESKALATORLARGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH



“Eskalatorlarga texnik xizmat ko‘rsatish” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Transport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Eskalatorlarga texnik xizmat ko'rsatish

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0106



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart xizmat (depo, bo'lim, sex, uchastka) katta ustasi, usta, usta yordamchisi, elektromexanik, eskalatorlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar elektrik kasblar uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

Eskalator – odamlarni vertikal yoki diagonal ravishda ko‘tarish/tushirish uchun mo‘ljallangan harakatlanuvchi pog‘onali mexanizm.

Texnik xizmat ko‘rsatish – eskalatorning to‘g‘ri va xavfsiz ishlashini ta‘minlash maqsadida belgilangan vaqt oralig‘ida bajariladigan profilaktik ishlar majmuasi.

Ta‘mirlash – eskalatorda yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish va uning ishlash qobiliyatini tiklash uchun olib boriladigan ishlar.

Diagnostika – eskalatorning texnik holatini baholash, nosozliklarni aniqlash uchun amalga oshiriladigan tekshiruvlar majmuasi.

Chilangar – texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash ishlarini bajaradigan mutaxassis.

Xavfsizlik texnikasi – ish joyida xodimlarning sog‘ligi va hayotini saqlash uchun belgilangan qoidalar va choralar.

Asbob-uskunalar – ta‘mirlash va xizmat ko‘rsatishda qo‘llaniladigan maxsus qurollar (kalitlar, ommetrlar, otvertkalar va h.k.).

Rezerv qismlar – eskalator qismlarini almashtirish uchun mo‘ljallangan elementlar.

Mexanik tuzilmalar – eskalatorning harakatlanuvchi va o‘zaro bog‘langan qismlari (sep, pog‘onalar, podshipniklar va boshqalar).

Elektr tizimi – eskalatorning harakati va boshqaruvini ta‘minlovchi elektr qismlar (dvigatel, rele, sensorlar va boshqalar).

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 noyabr “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi O‘RQ 1006 son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentyabr “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 345 son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 28 sentyabr “Transport sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyat tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 504 son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik

jihatdan tartibga solish agentligining 2025 yil 18 iyuldagi 94/MSt son Qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi — IFUT 2.1;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 17 iyun "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369 son Qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TTMM – tarmoq tarif-malaka ma'lumotnomasi;

DJJ – Dasturlashgan jihozlar jamlanmasi;

MAB – Markaziy aloqa bo'limi;

MB – Masofadan boshqarish;

EJQQ – Elektr jihozlari qurilmasi qoidalari;

XSHSh – Xo'jalik shamollatish shiti;

JMR – Joylarda markaziy rostlash;

DP – Dispetcherlik punkti;

ZT – Zaxira tizimi;

TXK – Texnik xizmat ko'rsatish;

RK – Rele kontrollari;

QT – Qisqa tutashuv;

OQ – Ogohlantirish qo'ng'irog'i;

ES – Eskalator sistemasi

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Eskalatorlarga texnik xizmat ko'rsatish	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi:	Eskalator va unga o'rnatilgan qurilmalarning ishonchli, uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlash, ularda yuzaga kelgan nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish orqali eskalatorlarning umumiy texnik holatini yuqori darajada saqlash.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	H seksiya: 33. Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish 33.1 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash 33.12 Mashina va uskunalarni ta'mirlash 33.12.0 Mashina va uskunalarni ta'mirlash	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	<p>Ushbu standart eskalatorlardan xavfsiz va uzluksiz foydalanishni ta'minlash, ularni texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash orqali ish holatini nazorat qilish bo'yicha talablarni belgilaydi. Standartga ko'ra, chilangar va texnik xodimlar eskalatorning tuzilishi, ishlash prinsiplari, uning asosiy tizimlari (mexanik, elektrik va boshqaruv bloklari) bo'yicha yetarli bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.</p> <p>Eskalatorni texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha talablar harakatdan oldin va keyin mexanik uzellar, podshipniklar, zinovalar zanjiri, tormoz tizimi va elektrodvigatellarni tekshirish, o'quvchi yuklamalarga muvofiq holda ishlashini nazorat qilish, mayda nosozliklarni bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Ta'mirlash ishlari eskalatorning ishdan chiqishi holatida yoki belgilangan profilaktik muddatlarda amalga oshiriladi.</p> <p>Bunda elektromotor, tormoz tizimi, avtomatik xavfsizlik qurilmalari, yong'in va xavf signalizatsiyalari, hamda boshqaruv panellarini ta'mirlash va sozlash kabi ishlar bajariladi. Ta'mirlash jarayonida ehtiyot qismlar almashtiriladi va eskalator sinovdan o'tkaziladi. Ish xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga qat'iy rioya etish talab etiladi. Xodimlar elektr xavfi, harakatlanuvchi qismlar bilan ishlashdagi xavflar va yong'inga qarshi choralar bo'yicha bilimga ega bo'lishlari zarur.</p>	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
74122002 Eskalatorlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar-elektrik		3	
74122003 Ko'tarish qurilmalari bo'yicha elektromexanik		3	
31220003 Ishlab-chiqarish sanoatida usta yordamchisi		5	

III. Kasbiy faoliyat turining funksional kartasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi va m/d	Nomi	Kodi	Nomi
1.	74122002 Eskalatorlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar elektrik	A1.3	Eskalatorlarning joriy va profilaktik ta'mirida juda murakkab elektr montaj va chilangarlik ishlarini bajarish.	A1.01.3	Eskalatorlarni ta'mirlash uchun zarur texnik va tashkiliy hujjatlarni tuzish.
				A1.02.3	Texnik topshiriqlar, ta'mir ishlari rejaları va boshqa hujjatlarni tayyorlash.
		A2.3	Elektrodivigatellarni ochish, qismlarga ajratish, yig'ish va o'rnatish bilan birga eskalatorlarning elektr jihozlarini ta'mirlash va reviziya qilish.	A2.01.3	Elektrodivigatellarni xavfsiz tarzda ochish va ularni qismlarga ajratish.
				A2.02.3	Elektrodivigatellar qismlarning holatini tekshirish va holatini baholash.
		A3.3	Himoya qurilmalari va avtomatikani ta'mirlash.	A3.01.3	Himoya qurilmalari va avtomatik tizimlarning holatini tekshirish va muammolarni aniqlash.
				A3.02.3	Nosozliklarni aniqlash uchun texnik vositalardan foydalanish.
				A3.03.3	Himoya qurilmalari va avtomatikani ta'mirlash, nosoz qismlarni almashtirish yoki tiklash.
		A4.3	Eskalatorlarning elektrdrayv sxemalarini demontaj qilish, montaj qilish, sozlash va tartibga solish.	A4.01.3	Eskalator elektrodrayv sxemalarini xavfsiz va to'g'ri tarzda demontaj qilish.
				A4.02.3	Demontaj qilingan komponentlarni saqlash va hisobga olish.
		2.	74122003 Ko'tarish qurilmalari bo'yicha elektromexanik	B1.3	Eskalatorlarni muammosiz va ishonchli ishlashini ta'minlash.
B1.02.3	Eskalatorlarda paydo bo'lgan nosozlik va kamchiliklarni tezda aniqlash.				
				B2.01.3	Ta'mirlash ishlariga uskunalarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish va tashkil etish.

		B2.3	Uskunalarni ta'mirlashga tayyorlashni tashkil qilish, kerakli ehtiyot qismlar, asbob-uskunalar bilan ta'minlash.	B2.02.3	Ta'mir ishlari uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlar, asbob-uskunalar va materiallarni ta'minlash.
		B3.3	Samarasiz uskunalarni yuqori unumli uskunalar bilan almashtirishda, og'ir jismoniy va mehnat talab qiladigan ishlarni mexanizatsiyalash vositalarini joriy etishda ishtirok etish.	B3.01.3	Samarasiz uskunalarni aniqlash va ularni yuqori samaradorlikka ega uskunalar bilan almashtirishni rejalashtirish.
				B3.02.3	Almashtirish jarayonida texnik va iqtisodiy omillarni hisobga olish.
		B4.3	Eskalatorlarni ta'mirlash uchun hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishni tashkillashtirish.	B4.01.3	Eskalatorlarni ta'mirlash uchun zarur texnik va tashkiliy hujjatlarni tuzish.
				B4.02.3	Hujjatlarni tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiq rasmiylashtirish.
3.	31220003 Ishlab- chiqarish sanoatida usta yordamchisi	D1.5	Xar xil turdagi uskunalarni ta'mirlash bo'yicha oylik, choraklik va yillik rejalarni, shuningdek ularni ishlatish va texnik xizmat ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi, tasdiqlangan rejalarning bajarilishini nazorat qilish.	D1.01.5	Uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha rejalarni (oylik, choraklik, yillik) ishlab chiqish.
				D1.02.5	Ta'mirlash ishlari va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha hisobotlar tayyorlash va taqdim etish.
		D2.5	O'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatishni va kapital ta'mirlashni amalga oshiradi va barcha turdagi uskunalarning muammosiz va ishonchli ishlashni ta'mirlash.	D2.01.5	Uskunalar o'z vaqtida profilaktik va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish.
				D2.02.5	Uskunalarning muammosiz va barqaror ishlashini nazorat qilish.
		D3.5	Bo'limda ratsionalizatsiya ishlarini tashkil qilish.	D3.01.5	Ratsionalizatsiya takliflari va ishlanmalarini to'plash, tahlil qilish va rejalashtirish.
				D3.02.5	Hodimlar o'rtasida ratsionalizatsiya g'oyalarini targ'ib qilish.
		D4.5	Eskalatorlarni ta'mirlash uchun hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishni tashkillashtirish.	D4.01.5	Eskalatorlarni ta'mirlashga oid texnik, moliyaviy va tashkiliy hujjatlarni tayyorlash.
				D4.02.5	Hujjatlarni tegishli me'yoriy talablarga muvofiq rasmiylashtirish.

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalar tavsifi

Kasbning nomi:	Eskalatorlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar elektrik	
Mashg'ulot nomining kodi:	74122	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3 daraja uchun ish staji talab etilmaydi, ammo kamida 3 oy amaliy stajirovkadan o'tgan bo'lishi zarur;	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikati</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; - jamoa bilan inoq ishlash; - o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish. 	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	1) o'rta maxsus ta'lim 2) umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2–6 razryadli Eskalatorlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar elektrik	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Eskalatorlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar elektrik

Mehnat vazifalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat funksiyalari	
A1.3- Eskalatorlarning joriy va profilaktik ta'mirida juda murakkab elektr montaj va slesarlik ishlarini bajarish.	A1.01.3 Eskalatorlarni ta'mirlash uchun zarur texnik va tashkiliy hujjatlarni tuzish.	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Eskalatorning texnik holatini baholash va ta'mirlash ehtiyojini aniqlash.
		2. Ta'mir turiga qarab (joriy, kapital, profilaktik) zarur hujjatlarning ro'yxatini shakllantirish
		3. Hujjatlarni tegishli bo'limlar bilan kelishish va tasdiqlash.
		Ko'nikmalar:
		Ta'mirlash ishlarini rejalashtirish va hujjatlashtirish ko'nikmasi.
		Texnik va tashkiliy ma'lumotlarni yozma shaklda to'g'ri bayon etish.
		Texnik xizmat ko'rsatish standartlariga muvofiq ish yuritish.
		Bilimlar:
	Eskalatorlarning konstruksiyasi, ishlash tamoyillari va ta'mir turlari.	
	Texnik hujjatlashtirish standartlari (GOST, ISO va ichki me'yorlar).	
	Tashkiliy ishlarni rejalashtirish usullari (grafik tuzish, vazifa taqsimoti).	
	Mehnat muhofazasi, texnik xavfsizlik va yong'in xavfsizligi bo'yicha hujjatlar tuzish talablari.	
	A1.02.3- Texnik topshiriqlar, ta'mir ishlari rejalari va boshqa hujjatlarni tayyorlash.	Mehnat harakatlari:
		1. Ta'mir talab etiladigan uskunaning texnik holatini o'rganish va tahlil qilish.
		2. Ta'mir turiga (joriy, kapital, profilaktik) muvofiq ravishda texnik topshiriq (TZ) tuzish
		3. Hujjatlarni ishlab chiqarish talablari, GOST, ST va ichki normativ hujjatlarga muvofiq tayyorlash.
		4. Hujjatlarni muvofiqlashtirish, tasdiqlash va zarur bo'lsa, qayta ko'rib chiqish.
		Ko'nikmalar:
Texnik topshiriq va rejalar tuzish ko'nikmasi.		
Kalendar grafik va resurs rejalari ishlab chiqish.		
Elektr va mexanik tizimlar bo'yicha hujjat tuzish va tahrirlash.		
Bilimlar:		
Ta'mirlash ishlarini rejalashtirish va boshqarish asoslari.		
Eskalatorlar va boshqa uskunalarining texnik tuzilishi va ta'mir qoidalari.		
Mehnat muhofazasi, xavfsizlik va ishlab chiqarish normalari bo'yicha hujjatlar tuzish qoidalari.		

	Mas'uliyat va mustaqillik:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Eskalatorlarning texnik holatini muntazam tekshirish va profilaktik xizmat ko'rsatish. 2. Xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilish. 3. Aniqlangan nosozliklarni vaqtida bartaraf etish va hisobot berish. 4. Ish jarayonida belgilangan texnik reglamentlarga muvofiq harakat qilish. 5. Nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish. 6. Ish jarayonida muammolarni hal qilish uchun tashabbus ko'rsatish. 7. Ishni rejalashtirish va samaradorlikni oshirish uchun mustaqil harakat qilish. 8. Favqulodda holatlarda tezkor va to'g'ri choralar ko'rish.
<p>A2.3- Elektrodivigatellarni ochish, qismlarga ajratish, yig'ish va o'rnatish bilan birga eskalatorlarning elektr jihozlarini ta'mirlash va reviziya qilish.</p>	<p style="text-align: center;">A2.01.3- Elektrodivigatellarni xavfsiz tarzda ochish va ularni qismlarga ajratish.</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Elektrodivigatelni tok manбайдan xavfsiz ajratish va energiya manbaini blokirovka qilish (energiya izolyatsiyasi). 2. Mahalliy qoidalarga muvofiq xavfsizlik choralarini ko'rish (elektrik razryad, yuqori kuchlanish, harakatdagi qismlardan himoya). 3. Elektrodivigatel tashqi holatini vizual ko'rikdan o'tkazish. 4. Kerakli asbob-uskunalarini tayyorlash va tekshirish (kalitlar, syomniklar, o'lchov asboblari va h.k.). 5. Elektrodivigatelni qat'iy tartibda va texnik reglament asosida qismlarga ajratish <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Elektr uskunalar bilan xavfsiz ishlash ko'nikmasi, Elektrodivigatellarni ajratish va yig'ish amaliyoti, Texnik holatni baholash va nosozlikni aniqlash ko'nikmasi</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Elektrodivigatellarning tuzilishi, ishlash prinsipi va turlari.</p> <p>Texnik xavfsizlik va mehnat muhofazasi qoidalari (elektr xavfsizligi, mexanik xavflar va h.k.).</p> <p>Elektromexanik ta'mirlash standartlari va reglamentlari.</p> <p>Asboblari va o'lchov uskunalarining qo'llanilishi.</p>
	<p>A2.02.3- Elektrodivigatellar qismlarning holatini tekshirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xavfsizlik qoidalariga muvofiq shaxsiy muhofaza vositalarini kiyish 2. Elektrodivigatelning tashqi holatini ko'zdan kechirish va ta'mirlanadigan qismlarni aniqlash.

	va holatini baholash.	3. To'g'ri asbob-uskunalarni tayyorlash va ularni tekshirish.
		4. Qismlarni ehtiyotkorlik bilan ajratish (rotor, stator, podshipnik va boshqa elementlar).
		5. Qismlarni identifikatsiyalash va tartib bilan joylashtirish.
		6. Xavfsizlik talablariga muvofiq ish jarayonini hujjatlashtirish.
		Ko'nikmalar:
		Elektr xavfsizligi qoidalari, texnik asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanish, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.
		Bilimlar:
		Elektrodvigatellarning tuzilishi va ishlash prinsiplari.
	Ta'mirlash jarayoni va uskunalari.	
	Elektr uskunalar ta'mirlash qoidalari.	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Eskalator va uning qismlarini uzluksiz ishlashini ta'minlash.
		2. Eskalatorning nosozliklarni bartaraf etish.
		3. Favqulodda holatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish.
		4. Nosozliklarni mustaqil aniqlash va bartaraf etish.
A3.3- Himoya qurilmalari va avtomatikani ta'mirlash.	A3.01.3- Himoya qurilmalari va avtomatik tizimlarning holatini tekshirish va muammolarni aniqlash.	Mehnat harakatlari:
		1. Himoya qurilmalari va avtomatik tizimlarning ishlash tartibi va texnik ko'rsatkichlarini o'rganish.
		2. Texnik hujjatlar (sxemalar, yo'riqnomalar) asosida tizimlarni vizual va texnik tekshiruvdan o'tkazish.
		3. Modullarning (rele, sensorlar, kontrollerlar) holatini nazorat qilish.
		4. Elektr o'lchov vositalari yordamida kuchlanish, tok va boshqa parametrlarni o'lchash.
		5. Muammo belgilarini aniqlash (issiqlanish, shovqin, signallar).
		6. Kamchilik va nosozliklarni tizimli tahlil qilish.
		7. Tekshiruv natijalarini qayd etish va hisobot tayyorlash.
		Ko'nikmalar:
		Elektr himoya qurilmalari va avtomatik tizimlarni texnik tekshirish.
		O'lchov va diagnostika asboblaridan to'g'ri foydalanish.
		Muammo belgilarini tez aniqlash va tahlil qilish.
		Bilimlar:
		Himoya qurilmalari va avtomatik tizimlarning ishlash prinsiplari.
Elektrotexnika va avtomatika asoslari.		

		Tekshirish va diagnostik usullar
		Mehnat muhofazasi va texnik xavfsizlik normalari.
		Korxonadagi texnik hujjatlar va standartlar.
	A3.02.3- Nosozliklarni aniqlash uchun texnik vositalardan foydalanish.	Mehnat harakatlari:
		1. Muammo yoki nosozlik belgilari bo'lgan uskunani vizual tekshirish.
		2. Qo'llaniladigan texnik vositalar turini va ularning ishlash usulini aniqlash.
		3. Texnik vositalarni tayyorlash va tekshirish (multimetr, ossillograf, tok o'lchovchi va boshqalar).
		4. Uskunaning ayrim qismlariga o'lchov vositalarini ulash va parametrlarni o'lchash.
		5. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va nosozlikni aniqlash.
		6. Qayta o'lchovlar o'tkazish va muammoni tasdiqlash.
		Ko'nikmalar:
		Turli texnik vositalardan to'g'ri va xavfsiz foydalanish.
		O'lchovlar natijalarini to'g'ri talqin qilish.
		Muammo aniqlash bo'yicha diagnostika usullarini qo'llash.
		Mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish.
		Bilimlar:
		Texnik vositalar turlari va ularning ishlash prinsiplari.
		Uskunalarining ishlash xususiyatlari va nosozlik belgilari.
		Diagnostika usullari va metodologiyasi.
	Tegishli turdagi Elektrovozning texnik xususiyatlari	
	Elektrotexnika va mexanika asoslari.	
	A3.03.3- Himoya qurilmalari va avtomatikani ta'mirlash, nosoz qismlarni almashtirish yoki tiklash.	Mehnat harakatlari:
		1. Ta'mirlash kerak bo'lgan himoya qurilmalari va avtomatik uskunalarni aniqlash va tekshirish
		2. Nosozliklarni aniqlash uchun diagnostika vositalari va usullaridan foydalanish.
		3. Tegishli turdagi Elektrovozning asosiy agregatlari, tormozlash agregatlari va yordamchi jihozlarning ishlashini tekshirish va nazorat qilish
		4. Nosoz qismlarni ajratish va uskunalaridan xavfsiz tarzda olib tashlash.
		5. Yangilangan yoki ta'mirlangan ehtiyot qismlarni tayyorlash va tekshirish.
		6. Qismlarni qayta o'rnatish yoki tiklash (qayta ishlash, payvandlash, sozlash)

		<p>7. Ta'mirlangan qurilmalarni ishga tushirish va tekshirish.</p> <p>8. Tegishli turdagi Elektrovozga texnik xizmat ko'rsatish me'yoriy hujjatda Elektrovoz mashinisti uchun belgilangan ishlar ro'yxatiga muvofiq</p> <p>9. Ta'mir jarayoni va natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlash.</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Himoya qurilmalari va avtomatik tizimlarni ta'mirlash texnologiyalari.</p> <p>Diagnostika vositalarini samarali qo'llash.</p> <p>Mexanik va elektr qismlarni ta'mirlash va almashtirish.</p> <p>Qismlarni qayta tiklash usullari.</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Himoya qurilmalari va avtomatik tizimlarning ishlash prinsiplari.</p> <p>Elektrotexnika va avtomatika asoslari.</p> <p>Ta'mirlashda qo'llaniladigan materiallar va texnologiyalar.</p> <p>Diagnostika usullari va standartlari.</p> <p>Xavfsizlik va mehnat muhofazasi normalari.</p>
	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<p>1. Eskalatorga texnik xizmat ko'rsatish va nosozliklarni aniqlash.</p> <p>2. Favqulodda vaziyatlarda tezkor choralar ko'rish.</p> <p>3. Texnik xizmat va yordamchi ishlarni mustaqil bajarish.</p> <p>4. Nosozliklarni bartaraf etishda tashabbus ko'rsatish.</p>
<p>A4.3- Eskalatorlarning elektrdrayv sxemalarini demontaj qilish, montaj qilish, sozlash va tartibga solish.</p>	<p>A4.01.3- Eskalator elektrdrayv sxemalarini xavfsiz va to'g'ri tarzda demontaj qilish.</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Demontaj qilishdan oldin eskalatorni tok manбайдan uzish va energiya izolyatsiyasini ta'minlash.</p> <p>2. Himoya vositalarini taqish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.</p> <p>3. Elektrodrayv sxemalarining texnik hujjatlarini o'rganish (sxemalar, yo'riqnomalar).</p> <p>4. Elektrodrayv elementlarini belgilash va ularning joylashuvini aniqlash.</p> <p>5. Asbob-uskunalarini tayyorlash va tekshirish (otvortka, kalitlar, izolyatsiya vositalari).</p> <p>6. Elektr simlari va ulamalarini asta-sekin, ziyon yetkazmasdan ajratish.</p> <p>7. Elektrodrayv bloklari, relelar, sensorlar va boshqa qurilmalarni xavfsizlik bilan demontaj qilish.</p> <p>8. Demontaj qilingan qismlarni to'g'ri joylashtirish va hujjatlashtirish.</p>

		Ko'nikmalar:
		Elektrodrayv sxemalarini tushunish va ularni demontaj qilish jarayoni.
Elektr uskunalarni xavfsiz izolyatsiya qilish va energiyani o'chirish.		
Asbob-uskunalardan to'g'ri va xavfsiz foydalanish.		
Elektrodrayv qismlarini identifikatsiyalash va belgilash.		
Mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.		
Bilimlar:		
Elektrodrayv sxemalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari.		
Elektr xavfsizligi va mehnat muhofazasi normalari.		
Elektr uskunalarni demontaj qilish.		
A4.02.3- Demontaj qilingan komponentlarni saqlash va hisobga olish.	Mehnat harakatlari:	
	1. Elektr yoki mexanik tizimdan ajratilgan komponentlarni vizual holatini tekshirish.	
	2. Har bir qismni identifikatsiyalash (nom berish, raqamlash, belgilash).	
	3. Demontaj qilingan qismlarni texnik holatiga qarab saralash	
	4. Komponentlarni tegishli joylarda xavfsiz va muvofiq sharoitda saqlash	
	5. Har bir qism bo'yicha ombor yoki elektron hisobot tizimida qaydlar yuritish (nom, holati, sanasi, mas'ul shaxs va h.k.).	
	6. Hujjatlashtirish va hisobot tayyorlash.	
	Ko'nikmalar:	
	Komponentlarni ajratib olish va texnik holatini baholash.	
	Qismlarni belgilash, raqamlash va tartib bilan saqlash.	
	Ombor hisobi va moddiy javobgarlik qoidalari bo'yicha ish yuritish.	
	Saqlash shartlariga rioya qilish (temperatura, namlik, xavfsizlik).	
	Bilimlar:	
	Elektr va mexanik komponentlarning turlari va ishlash prinsiplari.	
	Saqlash va hisobga olish bo'yicha standartlar (amaliy me'yorlar, ichki reglamentlar).	
Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablari.		
Texnik hujjatlarni rasmiylashtirish.		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Eskalatorlarning xavfsiz ishlashini ta'minlash. 2. Eskalator va uning jihozlarini texnik ko'rikdan o'tkazish va sozligini tekshirish.	

		3. Nosozliklarni aniqlash va ta'mirlash uchun tegishli choralarni ko'rish.
		4. Eskalatorning texnik holatini mustaqil baholash va profilaktik xizmat ko'rsatish.
		5. Favqulodda holatlarda tezkor chora ko'rish va xavfsizlikni ta'minlash.
		6. Ish jarayonida texnik reglamentlarga muvofiq harakat qilish.
<p>Texnik va/yoki texnologik talab</p>	<p>Elektrdrayv sxemalari bilan ishlashda ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan elektr sxemalari va texnik hujjatlar asos qilib olinadi.</p> <p>Elektr uskunalar (kontaktorlar, relelar, avtomatlar, dvigatellar) demontaj qilinganda ularning belgilangan tartibda belgilanishi va hujjatlashtirilishi kerak.</p> <p>Montaj ishlari amalga oshirilayotganda kabellarning to'g'ri va xavfsiz yo'nalishi, payvandlash va bog'lash nuqtalari texnik talablarga javob berishi shart.</p> <p>Barcha o'rnatilgan sxemalar o'lchov asboblari yordamida sinovdan o'tkaziladi va funksional holati tasdiqlanadi.</p> <p>Interaktiv ta'lim vositalari – Video darsliklar, 3D modellar va virtual haqiqat texnologiyalari bilan ta'lim berish.</p>	

Kasbning nomi:	Ko'tarish qurilmalari bo'yicha elektromexanik	
Mashg'ulot nomining kodi:	74122003	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3 daraja uchun ish staji talab etilmaydi, ammo kamida 3 oy amaliy stajirovkadan o'tgan bo'lishi zarur;	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikatini Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; - jamoa bilan inoq ishlash; - o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish. 	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	1) o'rta maxsus ta'lim 2) umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3–6 razryadli Ko'tarish qurilmalari bo'yicha elektromexanik	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Ko'tarish qurilmalari bo'yicha elektromexanik

Mehnat vazifalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat funksiyalari	
B1.3- Eskalatorlarni muammosiz va ishonchli ishlashini ta'minlash.	B1.01.3- Eskalatorlarni muntazam ravishda texnik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirish.	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Eskalatorlarni texnik xizmat ko'rsatish rejasiga muvofiq tekshirish va nazorat qilish.
		2. Uskunalarning turli qismlarini yog'lash, tozalash va profilaktik tekshiruvlar o'tkazish.
		3. Mexanik va elektr qismlarning holatini baholash, nosozliklarni aniqlash.
		4. Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish yoki ta'mirlashga tayyorlash.
		5. Texnik xizmat natijalari haqida hisobotlar tuzish va ularni tegishli bo'limlarga taqdim etish.
		Ko'nikmalar:
		Texnik xizmat ko'rsatish jarayonlari va usullarini amalga oshirish ko'nikmasi.
		Eskalatorlarning mexanik va elektr qismlarini tahlil qilish va texnik holatini baholash.
	Texnik asbob-uskunalar va diagnostik qurilmalardan foydalanish.	
	Bilimlar:	
	Eskalatorlarning tuzilishi va ishlash prinsiplari.	
	Texnik xizmat ko'rsatish turlari (profilaktik, joriy, kapital) va ularning talablari.	
	Mehnat muhofazasi va texnik xavfsizlik qoidalari.	
	Texnik xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil qilish va nazorat qilish.	
